

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 93 M: 336.7(575.1)

OBIDOV SAIDAHAD ALISHER O'G'LI

**O'zbekiston fond bozorlarini rivojlantirishda jahon tajribasidan samarali
foydalanishning asosiy yo'nalishlari**

**5A231101 – “Jahon iqtisodiyoti (mintaqa va faoliyat turlari buyicha)”
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. F.N.Nasriddinov


TOSHKENT – 2021

Ushbu dissertatsiyada fond bozori faoliyatini amalga oshirishning nazariy va huquqiy asoslari o'rganilgan, O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyat moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilingan, O'zbekistonda fond bozori faoliyatini xorijiy tajriba asosida rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

In this dissertation, theoretical and legal bases of the stock market are studied, the current state of financing investment activities in Uzbekistan through the stock market is analyzed, the development prospects of stock market in Uzbekistan on the basis of foreign experience are developed.


Magistrlik dissertatsiya ishi "Jahon iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 12 - sonli bayonnoma « 12 » 06 2021 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. F.N.Nasriddinov


imzo

13.06.21
sana


Magistr: S.Obidov


imzo

13.06.21
sana

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Jahon iqtisodiyoti" kafedrasini
mudiri dots. N.S.Ismailova

"13" 06 2021 yil 

Himoya 2021 yil " 14 " 06 soat 14.00 da Toshkent davlat iqtisodiyot va
universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. FOND BOZORI FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	7
1.1. Fond bozori faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari	7
1.2. Fond bozorining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati	17
1.3. O‘zbekistonda fond bozori faoliyatini tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy asoslari.....	27
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	31
II BOB. O‘ZBEKISTONDA FOND BOZORI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	33
2.1. O‘zbekiston fond bozorida samarali investitsion portfelni boshqarish amaliyoti tahlili.....	33
2.2. “Toshkent” Respublika Fond Birjasining joriy faoliyati tahlili.....	43
2.3. Fond bozorlaridagi operatsiyalarini rivojlantirishning Xitoy tajribasi	53
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	62
III BOB. O‘ZBEKISTONDA FOND BOZORI FAOLIYATINI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	64
3.1 Milliy iqtisodiyotga fond bozori orqali investitsiyalarni jalb etishdagi muammolar.....	64
3.2. Investitsion faoliyatni fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari.	72
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	88
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	90
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	92

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Xalqaro kapitallar harakati ko'p jihatdan mamlakatlar milliy fond bozorining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida fond bozorlari orqali investitsiyalarni jalb etishda milliy fond bozorlarining xalqaro tus olishi, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, global internet tarmog'iga ulanish va komputerlashtirish tizimining jadal rivojlanishi ta'sirida investitsiyalash ob'ektlari bo'yicha tezkor ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish tendensiyalari kuzatilmoqda. Hozirda xorijiy davlatlarda fond bozori yoki qimmatli qog'ozlar bozorining YaIMdagi salmog'i sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, 2019 yil boshiga ushbu ko'rsatkich AQShda 37 foizni, Yaponiyada 35, Fransiya 33, Italiya 32, Germaniyada 31, Janubiy Koreya 24, Gollandiyada 23, Xitoyda 19 foizni tashkil etdi¹. Bu esa, mamlakatga investitsiyalarni samarali jalb etish uchun, avvalo, milliy fond bozorini rivojlantirishni, axborot oshkoraligi va jozibadorligini sezilarli darajada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon fond bozorlari jadal sur'atlarda kengayib borayotgan bir paytda fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish, qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy qilish, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, ayrim moliyaviy vositalarning risklarni keltirib chiqarish darajasini minimallashtirish, investitsion banklarda qo'llanilayotgan dastlabki xavf signali (early warning signals) va xavfsizlik to'rlarini (safety nets) fond bozoriga moslashtirgan holda qo'llashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy fond bozorini shakllantirish va uni kapital harakatining asosi bo'lib xizmat qilishi uchun keng qamrovli ishlar olib borildi. Fond bozorini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asoslari, infratuzilmasi to'liq yaratildi. Lekin, ta'kidlash lozimki, mamlakat milliy fond bozori bugungi kunda pul resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashdek, ya'ni investitsiyalarni samarali jalb etishdek muhim vazifasini to'liq uddalay olmayapti. Shuning uchun ham milliy fond bozorini rivojlantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini

¹ Jahon fond bozorlari federatsiyasining yillik bulleteni (WFE FY 2019 Market Highlights) ma'lumotlari.